

“ChO‘LPONNING MUNOJOTLARI”GA TAXMISLAR

Xolida Ergashevna Bazarova

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti akademik litseyi ona tili
va adabiyot fani o‘qituvchisi
mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

An’anaviylik, izdoshlik, vorisiylik hodisalari adabiyotshunoslikda turli jihatlariga ko‘ra o‘rganiladi. Ijodkorlar o‘zlarigacha yashab o‘tgan shoirlarga ergashib, ularda kuchli hayajon uyg‘otgan, ilhomlantirgan asarlardan ta’sirlanib, o‘xshash namunalar yaratadilar. Ana shu jarayonda an’analar yuzaga keladi; tatabbu’, nazira san’atlari qo‘llanib, javobiya, taxmislar yoziladi. Alisher Navoiy bu ishning mashaqqati va mas’uliyatini badiiy til bilan “sher panjasiga panja urmoqdir” deya ta’kidlagani bejiz emasdi. Maqolada adabiyotshunos olim, iste’dodli shoira Nodira Afoqova Abdulhamid Cho‘lpon she‘rlariga bitgan taxmislarida tatabbu’navislik san’ati, ularda mumtoz she‘riyatga xos an’ana va vorisiylikning ifodalanishiga doir mulohazalar keltirildi. Abdulhamid Cho‘lpon she‘rlariga yozilgan naziralarning poetik xususiyatlari, nazira yaratish jarayonining vazn yoki janrga ta’siri yuzasidan o‘rganilib, ilmiy va germeneytik usullariga ko‘ra izlanish olib borildi. Shuningdek, salaf ifodalagan g‘oyaning xalaf ijodida qay darajada ifodalanganligi, bunda ijodkorning san’atkorligi va mahoratiga baho berildi.

Kalit so‘zlar: *tatabbu’, nazira, an’anaviylik, taxmis; aruz, hazaj va ramal bahrlari; g‘azal, tab‘i xud muxammaslar; barmoq vazni, qofiya, radif; istiora badiiy tasvir vositalari.*

АННОТАЦИЯ

Явления традиционализма, преемственности, преемственности изучаются в литературоведении с разных сторон. Художники следуют за поэтами, жившими до них, находятся под влиянием произведений, вызвавших в них сильное волнение и вдохновение, и создают подобные образцы. Именно в этом процессе возникают традиции; татаббу’, используются искусства назира, пишутся надабия, тахми. Недаром Алишер Навои художественным языком подчеркивал сложность и ответственность этой работы, говоря, что «это все равно что ударить лапой по лапе льва». В статье литературовед, талантливая поэтесса Надира Афокова в своих интерпретациях стихотворений Абдулхамида Чолпана прокомментировала искусство письма, выражение в них традиции и наследия, характерного для классической поэзии. Изучены поэтические особенности стихов, написанных на стихи Абдулхамида

Чолпона, влияние процесса создания стихов на вес или жанр, исследование проведено научными и герменевтическими методами. Также по тому, насколько идея, высказанная предшественником, была выражена в творчестве преемника, оценивалось художественность и мастерство поэтессы.

Ключевые слова: *татаббуъ, назира, традиционализм, тахмис; аруз, хазаж и рамал; газель, табъи худ мухаммас; рифма, радиф; метафора – средство художественного изображения.*

ABSTRACT

The phenomena of traditionalism, followership, succession are studied in literary studies according to different aspects. Artists follow the poets who have lived before them, are influenced by the works that have aroused strong excitement and inspiration in them, and create similar examples. It is in this process that traditions arise; tatabbu', nazira arts are used, nadabiya, takhmis are written. It was not for nothing that Alisher Navoi emphasized the difficulty and responsibility of this work in artistic language, saying "it is like hitting a paw on a lion's paw". In the article, literary scholar, talented poetess Nadira Afokova, in her interpretations of Abdulhamid Cholpan's poems, commented on the art of writing, the expression of tradition and inheritance characteristic of classical poetry in them. The poetic features of verses written on the poems of Abdulhamid Cholpon, the impact of the verse creation process on the weight or genre were studied, and research was conducted according to scientific and hermeneutic methods. Also, to what extent the idea expressed by the predecessor was expressed in the work of the successor, the artist's artistry and skills were assessed.

Keywords: *tatabbu', nazira, traditionalism, takhmis; aruz, hazaj and ramal seas; ghazal, tabi khud muhammas; finger weight, rhyme, radif; metaphor is a means of artistic representation.*

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyotida nazira yozish, izdoshlik va vorisilylik yo'lida yaratilgan asarlar hamda shunday usulda ijod qilgan ijodkorlar faoliyatini o'rganish va tahlil qilish XIX asr o'rtalarida yuzaga kelgan. Va bu jarayon har bir davr uchun muhim, jiddiy masala hisoblangan. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelayotgan milliy ma'naviy merosimizni o'rganish shu kunning eng dolzarb vazifasi ekanligi ta'kidlanib: "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanish kerak"¹, -deya ilm ahli oldiga yuksak vazifalar

¹ "Prezident o'qituvchi va ziyolilarga murojaat qilmoqda" ma'ruzasi. 30.09.2020

belgilab berilgan. Tatatabbu' o'zining boy tarixi va tajribasiga ega badiiy tasvir vositalaridan bo'lib, o'zigacha mavjud bo'lgan badiiy manbalarga o'xshatish yo'li bilan yaratilgan asarlarda ko'rinadi. Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar Nizomiy "Xamsa"sig'a javob yozib bu an'anani haddi a'losiga yetkazdilar. Boborahim Mashrab Lutfiyning "Xoh inon, xoh inonma", Furqat Fuzuliyning "Surmadin allar qaro..." hamda Mohlaroyim Nodiraning "Do'stlar, hech kim meningdek...", Omon Matchon Navoiyning "Avvalg'ilarg'a o'xshamas", Jamol Kamol Navoiyning "Istaganlar bizni sahroyi baloda istangiz", Usmon Azim Navoiyning "Ne uchun tarki muhabbat qildi mohim bilmadim" kabi g'azallariga tatabbu'lar yozdilar. Jarayon tatabbu'ni o'rganish, tahlil qilish, ijodkorlar mahoratiga baho berish ehtiyojini keltirib chiqardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotshunos olim Fayzulloyev tadqiqotlarida tatabbu'ga Nikitskiy, Bartold, A.Sa'diyalar tarjima yoki taqlidchilik sifatida noto'g'ri baho berganliklarini, o'tgan asrning 60-yillaridagina tatabbu'navislikka Bertels, Hayitmetov, Is'hoqov, R. Orzibekov, A. Abduqodirovlar ijodiy jarayon sifatida tahlil etganliklarini qayd etadi.² Adabiyotshunos olim M. Tojiboyeva esa "an'ana va vorislik nafaqat badiiy adabiyot, umuman, san'atga xos hodisa" deya ta'kidlaydi. Biz ham olim Fayzulloyevning qaydlariga tayanib tatabbu'ni badiiy tasvir vositasi sifatida tahlil qilishni ma'qul topdik. Darhaqiqat, tatabbu' janr emas, tatabbu' tazmin, nazira atamallari bilan ham yuritiladi, u adabiy tur, she'riy sistema, janrga ta'sir qiladi, ya'ni tatabbu'da ustoz yoki zamondosh shoirlarning she'rlaridan misra, bayt, yoki asarning qofiya va radifi olinib, ijodiy rivojlantiriladi. Shoir ustoz shoirning she'ri qaysi janrda bo'lsa, bu ham aynan o'sha janrda yaratish mas'uliyatini olmaydi. Aynan shu jihat nazirada erkinlik beradi. Ammo shuni ham ta'kidash joizki, adabiyot tarixida g'azallarga o'xshatmalar yozish turli she'riy janrlarda, ko'p hollarda g'azal yoki muxammas shaklida, ya'ni taxmis muxammaslar yaratish an'anaviy tus olgan. Tatabbu' –o'xshatma yaratishdan maqsad, avvalo, ijod sirlarini o'rganish, ijodda yuksalish, ustozga tenglashish, taqliddan qochib, o'ziga xos yuksak san'atkorlik namunasini ko'rsatishdir. An'ana va vorislik umumiy, keng ko'lamli tushuncha bo'lsa, tatabbu'navislik ana shu jarayonning eng aniq va betakror, jozibali va mas'uliyatli bir tarmog'idir. Zero, "Tatabbu' ijodiy bellashuvdir. Tatabbu'navislik an'ana, yangilik va mahorat uchligi bilan bog'liq faoliyatdir". [Fayzulloyev, "O'zbek she'riyatida tatabbu' tarixi va mahorat masalalari (XVII-XIX asrlar va XX asr boshlari g'azalchiligi asosida)" dic-258/2004,11-bet]. Adabiyotshunoslik tarixida tatabbu' va mumtoz adabiyot

² Fayzulloyev B.B. O'zbek she'riyatida tatabbu' tarixi va mahorat masalalari. T. 2002.3-5-bet

an'analari masalasi "O'zbek she'riyatida tatabbu' tarixi va mahorat masalalari (XVII-XIX asrlar va XX asr boshlari g'azalchiligi asosida)" [Fayzulloyev B.B. dis-258/2004], "Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an'analari" [Tojiboyeva M.A. dis-383/2018], "Avaz she'riyatida an'ana va mahorat" [Yuldasheva M.T. dis-651/2006], "Muazzamxon she'riyatida adabiy an'ana va badiiy mahorat" [Saydaliyeva N.F. dis-160/2004] kabi mavzularda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

METODOLOGIYA

Adabiyotshunos olimi, hassos shoira Nodira Afoqova ijodida an'ana va mahorat, tatabbu' va izdoshlik masalalari haqidagi mulohazalar hali tadqiq etilmagan. Umuman, shoira she'riyatiga doir Akif Bag'ir, Bahodir Sarimsoqovlarning ayrim ilmiy kuzatishlari chop etilgan.³ Shoiraning aruziy she'rlari ham, zamonaviy o'zbek aruzining spetsifik tabiati, undagi yangilanishlar muammosi fundamental ilmiy tadqiq qilingan emas. Shu nuqtayi nazardan mazkur ish mumtoz adabiyot an'alarining zamonaviy o'zbek she'riyatida ifodalanishi iste'dodli shoira Nodira Afoqova ijodi misolida ko'rib chiqishga asoslangan. Nodira ijodida tatabbu' g'azalga g'azal, g'azalga muxammas, ruboiyga ruboiy, ruboiyga barmoq vaznida she'r, ruboiyga masnaviy ko'rinishdagi tatabbu'lar uchraydi. Mazkur ishda Nodira Afoqovaning "Ko'ngil shevasi", "So'z ayvoni", "Qora navo", "Bizning era", "Yolg'izning yori" she'riy kitoblari, shuningdek, shoira ijodini aks ettiruvchi "Nodira Ofoq. t.me./Nodira she'riyati" telegram kanali va Facebook ijtimoiy tarmog'ida e'lon qilingan she'rlari ilmiy va germeneytik tahlil qilindi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tatabbu' ta'sirlanish motivi asosida yaratiladi. Ijodkor tatabbu'ni kimningdir asaridan ta'sirlanib yoki ilhomlanib yozadi. Uning yaratilish uslubiga ko'ra nazira qilinayotgan asarning qofiyasi, radifi yoki biror misrasi to'liq, ba'zan so'z birikma, jumla olinadi. Shoir ijodiy yondashib, mavzuni kengaytiradi, boyitadi, yangilaydi, qisqasi, o'z mahorati va san'atini namoyon etadi. Demak, mumtoz adabiyot ko'rinishlarining zamonaviy adabiyotga o'tib kelishida ta'sir va ta'sirlanishning ahamiyati katta. Bu jarayon barcha ijodkorlar ijodida kuzatiladi. Bugungi kun zamonaviy o'zbek she'riyatiga Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Nodira, Uvaysiy ijodining ta'siri beqiyos, albatta. Zamondosh shoir va shoirlarimiz ular izidan borib, o'xshatmalar yaratganlar.

Albatta, tazmin she'rlar haqida gap ketganida, aytish mumkinki, shoirlar ijodida g'azallarga o'xshatmalar muxammas shaklida yaratish an'ana tusini olgan. Afoqova

³Бағир А. Сохир шеърият// Ўзбекистон адабиёти ва санъати", 2004 йил 28-апрель; Саримсоқов Б. Ижод бахти, яратиш бахти // Афоқова Н. Кўнгиш шеvasи. – Т.: "Фан", 2006. – 3-6-б.; Саримсоқов Б. Қўшқанот ижод бахти // Афоқова Н. Аросат фасли. – Бухоро, 2003. – 3-5-б.

she'riyati ham bu tendensiyani davom ettirgan. Shoira ijodida Navoiy, Bobur, Cho'lpon g'azallariga yozilgan taxmis muxammaslar mavjud. Taxmis muxammaslar yaratish ham o'zbek mumtoz adabiyotida qadimiy an'analardan. Nodira Afoqova she'riyatida taxmis muxammaslarning salmo'gi ham anchagina. Xususan, shoiraning Navoiy qalamiga mansub "Xil'atin to aylamish jonon qizil, sorig', yashil", "Gulbun uzra subhidam har sori gul bargi tari"⁴, "Ey sabo, holim borib sarvi xiromoning'a ayt", "Ko'zing ne balo qaro bo'lubtur", Zahiriddin Muhammad Boburning "Mening ko'nglimki gulning g'unchasidek tah-batah qondir", Cho'lponning "Ko'ngil", "Qalandar ishq"⁵, "Galdir", "Sozim", "Bas endi"⁶ kabi she'rlariga bitilgan taxmislari mavjud.

Muxammaslar o'z tabiatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: tab'i xud va taxmis muxammaslar. Tab'i xud muxammaslar shoir tomonidan mustaqil yozilgan har bandi besh misrali she'rlar, taxmis muxammaslar esa biror shoir she'ridan ta'sirlanib, ilhomlanib, undan ba'zan bir, ba'zan ikki misra olib, ijodiy davom ettirilgan beshliklardir. Tahlil maqsadiga ko'ra Afoqova muxammaslarining faqat taxmislari ustida mulohazalar yuritimiz. Albatta, Navoiy ijodi barcha davr ijodkorlariga ruhiy quvvat, samoviy ilhom berib turadi. Mutafakkirning so'ziga so'z, amaliga amal bilan javob berish esa san'atdir. "Taxmis bog'lashga jazm qilgan shoir o'zini Navoiyning huzurida deb hisoblashi, hazrat nazarini his etib turishi kerak", -deya ta'kidlaydi adabiyotshunos olim Abdulla A'zam o'zining "Aruz" nomli tadqiqot ishida muxammasga qo'yilgan talabning o'ta mas'uliyatli ekanini nazarda tutib. Bu fikr g'azalga taxmis bo'glashning nechog'li mas'uliyatli ekaniga ishora. Zero, Alisher Navoiydek buyuk dahoning taxmislari juda kam, birgina "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining to'rtinchi kitobi "Favoyid ul-kibar" majmuasiga 2ta muxammas kiritilgan. Umuman olganda, kulliyotning o'zida 3-4ta muxammas jamlangan.⁷ Navoiyning 16 nafar shoir g'azallariga yozgan tatabbu'lari "Devoni Foni" majmuasida jamlangan⁸. Taxmisdan tazminga olingan ikki misraga shoir uch misra qo'shadi, bu bilan u ustozga hurmat ko'rsatadi va unga ijodiy ergashadi.

Shoira Afoqova ham ustozlar izidan ergashib, ular boshlagan an'anani davom ettiradi, bunga uning asosi ham bor: u tatabbu' yozishda yetarli tajriba va mahoratga ega. U muayyan shoirga ergashishdan ko'ra bu san'atda o'z san'atkorligini "chig'iriqdan o'tkazish", bu borada ijodiy yangilik va topilmalarni rivojlantirishni, san'atkorlik sirlarini ustozlardan saboq olmoqni, ijodda barkamolikka erishishni ham

⁴ Afoqova Nodira. Qora navo. Toshkent: "Akademnashr", 2011-yil. B-74-,78.

⁵ <https://t.me/Nodirasheriyati>. Manba shu telegram kanalidan olingan

⁶ <https://t.me/s/magistrilarofficial?q=%23Nazm>. Manba shu saytdan olingan

⁷ Алишер Навоий Фавойид ул-кибар. Тошкент.: "Фан", Б- 445-446

⁸ Sh. Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov, Navoiyshunoslik/ darslik.-Toshkent., 2019.B-335

maqsad qiladi. Tatabbu' qilishni maqsad qilgan she'rlar ham shoiraning tanlovi: qalbiga yaqin, maslakda bir, san'atkorlikda ustalik sifatleri bilan saylangan.

Nodira Afoqova ijodiga Cho'lpon ijodining ham ta'siri katta. Shoiraning Cho'lpon g'azallariga nazira bog'lagan. "Cho'lponning munojotlari" (muxammaslar turkumi) "Ko'ngil shevasi" to'plamidan o'rin olgan mazkur muxammaslar "Qalandar ishq", "Galdir", "Sozim", "Yetar, bas, chekdan oshqondur", "Ko'ngil" she'rlariga bitilgan taxmislardir. Cho'lponning "Ko'ngil"⁹ she'ri aruzning hazaji musammani solim bahrida yozilgan. 3-baytli mazkur g'azalni Cho'lpon barmoq she'r tizimiga yaqinlashtirib, unga "Ko'ngil" deb sarlavha qo'ygan (g'azalga sarlavha qo'yililmaydi) hamda misralarni sindiradi: uch bandli she'r holiga keltiradi:

Ko'ngil, sen bunchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen buncha sustlashding...

Ammo misralar yoyilganida bu she'rning hazaj bahrida yaratilgan g'azal janriga mansub ijod namunasi ekanligi anglashiladi:

Ko'ngil, sen bunchalar nega Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor, Nechun sen buncha sustlashding...

Shoira ana shu holatni aruz nazariyasi nuqtayi nazaridan sindirilgan misralarni yaxlitlab, bayt holiga keltirgan va unga tatabbu' bog'lagan:

Ayo charx, sen mening ko'nglim bilanmu muncha qasdlashding,
Ichida g'unchadek qoni-ochirmasg'amu bahslashding,
Qayerda johil-u g'addor-alar-la sen-ku dastlashding,
Ko'ngil, sen munchalar nega kishanlar birla do'stlashding,
Na faryoding, na doding bor, nechun sen muncha sustlashding?¹⁰

"Ko'ngli erkin bo'lgan odamni bukib bo'lmaydi" deyishadi buyuk allomalar. Bu haqda Cho'lponning "Vijdon erki" she'rida shunday misralarni o'qish mumkin:

...Hayvonlarga, insonlarga
Zolim ega bo'lmay qolmas,
Faqat erkin vijdonlarga
Ega bo'lmoq mumkin emas!¹¹

Cho'lponning lirik qahramonni "ko'ngil" deb ifodalashida ham falsafiy mantiq bor. G'azalning birinchi baytidagi "ko'ngil" mustabid tuzum siyosatidan ezilayotgan millatning umumlashma obrazidir. Oyoq va qo'llariga urilgan erksizlik kishani taqdir bitigimi, balki johil yo g'addor kimsalar bilan do'stona munosabatlar

⁹ <https://tafakkur.net/ko'ngil/abdulhamid-cholpon.uz>

¹⁰ N.Afoqova "Ko'ngil shevasi", O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2006-yil, B-74

¹¹ Cho'lpon, "Buloqlar quchog'ida", she'rlar, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent.-2007, B-15

oqibatidir? “O’zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da’vo”ga, deguvchi xalqimiz o’gitiga monand: “na faryoding, na doding bor...” deya millatning oldiga ketma-ket savollar qo’yadi shoir. Shu tariqa salaf va xalaf dardlari dastlabki besh misrada uyg’unlashib ketadi. Ammo ustozning kinoyaga o’ralgan hasrati yanada og’irroq: “Ko’ngil, sen munchalar nega kishanlar birla do’stlashding?” Muxammasga bog’langan dastlabki uch misrada shoira ana shu kinoyaga aniqlik kiritgan: bir tomondan ko’ngilning kishanlarga qo’llarining bog’latilishi-charxning ishi, taqdiri azalning qismati desa, ikkinchi tomondan ko’ngilning ham yaxshi-yomon, nodon-u johil bilan yaqinligida deya talqin keltiradi.

Haqorat dilni o’gritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?

Xalaf ham salafning da’vatlariga munosib yoniq savollar qo’yadi, jim turmaslikka chorlaydi:

Nechun jimsan, bu jimlik bir kuni boringni yutmasmu?
Sening ko’z yoshingga oyog’ini chayganlar itmasmu?
Bu itlar ayshini sursa, uyatmasmu? Uyatmasmu?
Haqorat dilni o’gritmas, Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi? Qilichlar endi sinmasmi?

Tatabbu’ qilinayotgan she’rda mavjud badiiy tasvir vositalari nazirada ham qo’llanishi kerak. G’azalda Cho’lpon qo’ygan tajohuli orifona savolga shoiraning tajohuli orifona ritorik so’rog’i achchiqroq: “Sening ko’z yoshingga oyog’ini chayganlar itmasmi?”, “Bu itlar ayshini sursa, uyatmasmi?” Nodira qalamida shoira mazkur talabni ham g’oyatda ustalik bilan uddalagan. Tajohuli orifona berilgan savollar ketma-ketligi Cho’lpon ifodalagan mazmun mohiyatni teran ochishga xizmat qilgan. “Uyatmasmi” jumlasining takroran qo’llanishi esa ta’sirchanlikni yanada oshirgan.

Tiriksan, o’lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsen,
Kishan kiyma, Bo’yin egma,
Ki, sen ham hur tug’ilg’ansen! – satrlari bilan yakunlaydi Cho’lpon o’z ko’ngliga qilgan da’vatini.

Agarchi yuz yil-u ming yil kurashgansan-da, tolg’onsen,
Bu kunlar pardapech yoving-murakkablikda qolg’onsen,
Jahonni buzmasa na’rang, ko’ngil, borligi yolg’onsen,
Tiriksen!

O'Imagansen!

Sen-da odam, sen-da insonsen!

Kishan kiyma! Bo'yin egma! Ki sen ham hur tug'ulg'onsen!

Badiiy asarda ijodkor nimani tasvirlashidan qat'i nazar, ma'lumot beradi. Mazkur an'anaga muvofiq shoira bog'layotgan "Agarchi yuz yil-u ming yil kurashgansan-da, tolg'onsen" misrasida xalqmizning avval fors-tojik, arab, mo'g'ul, rus fathiga qarshi kurashib asrlar davomida ezilganini nazarda tutganini sezish qiyin emas. Tarixchi-yozuvchi Muhammad Ali xalqimizning erkinlikdagi davrini uch mingyillik tarixi davomida bor –yo'g'i 150 yil deb ko'rsatgani edi suhbatlaridan birida. Ammo hech bir kuch abadiy emas. Xuddi shunday, istibdodning ham yakuni bor! Buning uchun odam, inson ekanlikning o'zi yetarli!

E'tibor berilsa, she'rning asosiy sifatlaridan bo'lgan ritm mazkur bandda asosiy rol o'ynagan. Afoqova shunday ohang tanlaydiki, satrma-satr bu ohang ko'tarilib, Cho'lpon na'ralariga jo'r bo'lib ketadi. Maqta'ning asliga ko'ra, sindirilganida saqlanishining ham mohiyati shunda: shoira ustoz istagan-aruzni barmoqqa vazniga yaqinlashtirish istagiga qarshi bormaydi. "Cho'lponning munojotlari (muxammaslar turkumi)"dagi "Qalandar ishq" she'rida an'anaviy ravishda ilohiy ishq kuylangan, "Yetar, bas, chekdan oshgandir bu qarg'ish, bu haqoratlar", "Sozim", "Galdir" she'rlariga bitilgan muxammaslar xalqimizning erksizlikda kechgan umri, tutqunlikda o'tkazgan og'ir turmushi, haqsizlik, adolatsizlik hukm surgan suronli yillar og'riqlari dard bilan, alam bilan qalamga olingan. Nodira Afoqovaning aynan shu she'rlarga murojaat qilganidan maqsad ham bugungi mustaqilligimizni qadrlash, hurlligimizni asrash, erksizlikning oqibatlarini, u tufayli yetgan alam va iztiroblarni qayta boshdan kechirmaslik uchun o'quvchini bedor bo'lishga, istiqloлга yo kurash, yo halokat masalasi sifatida qarashga undashdan iborat:

Nadur manzil? Bilolmasman, agar yo'ldur zalolatlar,

Agar yo'ldur qabohatlar, arosatlar, asoratlar,

Yetar, bas, lozim emdi yo kurash, yoxud halokatlar,

Yetar, bas, chekdan oshqondur bu qarg'ish, bu haqoratlar,

To'lo'g'dur, balki toshqondur tubanlik ham safolatlar.¹²

Muxammas she'rning asl vazni hazaji musammani solim bahrida yozilgan. Ijodkor birinchi bandda asl vazni to'la salqashga erishgan. She'r a-a, b-b, c-c, d-d, e-e tarzidagi o'zaro juft misralarning qofiyalanishiga xos masnaviy yo'lida yozilgan. Haqoratlar-safolatlar, intilmoq-talpinmoq, tortmoq-yutmoq, ketmoq-yetmoq, otmoq-yetmoq qofiyadosh so'zlar qofiyaning tartibda joylashishi vazn talabini qondirilishiga

¹² Afoqova N.M. Ko'ngil shevasi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, Toshkent.: 2006-yil B-73

mos. Masnaviyning 1-2-baytlarda radif ishlatilmagan, 3-bayti “istaylar”, 4-5-baytlari esa “istayman” so’zi bilan ifodalangan radif qo’llangan. Insoniyat hayotida qabihlik, zalolat, iymonsizlik kechar ekan, u qabohatga botgusi, halokatga uchragusi tayin, ammo tokaygacha u bundan aziyat chekishi kerak? Tubanlik va halokatning ham yakuni bo’lmog’i kerak. Nafs yo’lida kimningdir erkini bo’g’moq nokaslik, ammo erksizlikda kimningdir oyog’i osti bo’lish, unga bosh urish, insonning o’yinchoqsifat ermak bo’lib qolishi og’ir. Tanda qatra qon, qo’lda quroli bo’lmaganida, so’nggi toshni bo’lsa-da qurol qilib, kurashmoq, kurashmoqqa ko’ngilda intilishning borligi tiriklik, uyg’oqlikdan darak ham da’vat:

Yetar, tokay bo’lurmiz noasl, nokaslarga ermak,
O’shal ermaktalab nomardlar oyog’iga bosh urmak,
Kerakkim qatra qon qolsa ramaqda andoq hayqirmak:
Qo’limda so’nggi tosh qoldi, ko’ngilda so’nggi intilmak,
Ko’zimda so’nggi yosh qoldi, kuchimda so’nggi talpinmak.

Masnaviyning ikkinchi:

Qo’limda so’nggi tosh qoldi, ko’ngilda so’nggi intilmak,

Ko’zimda so’nggi yosh qoldi, kuchimda so’nggi talpinmak,-baytida so’zlardan qo’limda-ko’zimda, so’nggi-so’nggi, tosh-yosh, ko’ngilda-kuchimda, so’nggi-so’nggi, intilmak-talpinmak tarzida, ya’ni ostma-ust misradagi so’zlardan ohangdosh sifatida qo’llab, tarse’ badiiy tasvir vositasi qo’llangan. Taxmisda esa bu jarayon 3-baytda quyidagicha ifodalangan:

Qo’limda so’nggi tosh ne-ne jahonlarni xarob aylar,

Ko’zimda so’nggi yosh dunyoyi shumni g’arqi ob aylar...

Qo’limda-ko’zimda, so’nggi-so’nggi, tosh-yosh, jahonlarni-shumni, xarob-g’arqi ob so’larini o’zaro qofiyadosh sifatida qo’llab, tarse’ hosil qilingan. Bu jihat taxmisning muvaffaqiyati, ya’ni badiiy tasvir vositalarining qo’llashdagi talabini to’la bajarilganligidir. Endi shu besh misrani to’liq keltiramiz:

Qo’limda so’nggi tosh ne-ne jahonlarni xarob aylar,

Ko’zimda so’nggi yosh dunyoyi shumni g’arqi ob aylar...

Aning bois bu yirtqich vahshiy qonxo’rlar shitob aylar:

Bu qarg’ish, bu haqoratlar kuchimni tortmoq istaylar,

Tubanlik ham safolatlar o’zimni yutmoq istaylar.

She’r hazaj bahrida yozilgani bilan unda barmoq vaznining ta’siri ko’rinib turibdi. Aniqroq tasavvur hosil bo’lishi uchun tahlilni jadvalda taqdim qilmoqdamiz:

qo’	lim	da	So’ng	gi	Tosh	ne	ne	ja	Hon	lar	Ni	Xa	Rob	ay	lar
v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	V	-	-	-
Ko’	zim	da	So’ng	gi	Yosh	dun	yo	yi	shum	ni	G’ar	Qi	Ob	ay	lar
v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-

A	Ning	bo	is	bu	Yirt	qich	vah	shiy	Qon	Xo'r	lar	shi	Tob	ay	lar
v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-
bu	Qar	G'ish	bu	ha	Qo	rat	lar	ku	Chim	ni	tort	moq	Is	tay	lar
v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-
tu	Ban	lik	ham	sa	Fo	lat	lar	O'	Zim	Ni	yut	moq	Is	tay	lar
v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-	-	-

Vazn talabiga ko'ra birinchi mafoiylun (v - - -) ruknidagi “qo” “ko” , “bu”, “tu” cho'ziq bo'g'in, “a” esa qisqa bo'g'in sanalishi kerak, ammo she'r o'zbek tilida aytilayotgani, arab harflari sifatlariga ega bo'lmagani nuqtayi nazaridan barcha misralardagi birinchi hijolar talaffuzi va eshitalishiga ko'ra qisqa bo'g'in deb olingan; ikkinchi bo'g'indagi 3-misrada qo'llangan “ning” o'ta cho'ziq bo'g'in (V-), qolgan misralarda qo'llangan ikkinchi bo'g'inlar esa cho'ziq hijo sanaladi, ammo talaffuz talabiga asoslanib, cho'ziq bo'g'in sifatida olingan. Mazkur tadqiqotda adabiyotshunos olimi Nodira Afoqovanning “...jadid shoirlarning aruzdagi adabiy merosini tekshirganda, bugungi ayrim ishlarda qo'llanayotgandek juzvlarni, sarbast va barmoqdagi adabiy merosni tekshirganda, she'ring grafik ko'rinishini emas, balki talaffuzni-she'ring o'qilish usuli eshitalishini asos qilib ol”¹³ishni ma'qul ko'rdik.

“Ko'ngil”, “Yetar, bas...”, “Galdir”, “Sozim” mavzu jihatidan bir-birini to'ldirib, boyitib turuvchi falsafiy mushohadalari ustuvor asarlardir. Jumladan “Galdir” she'rida Cho'lponning mustabid tuzum oqibatlarini, “Mustabid borliqqa qarshi chorasiz titroqlari”, uning inson erkini so'ndirishga qaratilgan chirkin qilmishlariga nafrat, haqlik, hurlik, erk uchun kurashishga chorlash, ozod qalblarni bukib bo'lmasligiga ishonch barq urib turgan hayqirig'i, o'z ortidan istiqloq sari boshlayotgan MARD o'g'lon chorlovidir. Hassos shoira Afoqova ana shu chorlovga ergasha olgan, uning da'vatlariga quloq tutgan, “ko'zda so'nggi yosh”, qo'lda “so'nggi tosh” bilan erk uchun kurashga otlangan fidoyi jangchidir. She'r xuddi tashviqotchi ma'ruzasidek baland pardalarda o'qiladi. Xalqning Cho'lpon iborasi bilan aytganda “xalq kuchdir”, “xalq olovdur”¹⁴ kabi bo'lgan qudratiga ishonadi, ana shu kuch va qudratga ega bo'lgan xalqni g'aflat uyqusida ekanligiga kinoya bilan “...Bu yotish, bu uyqu, bu qanday shirin, qanday go'zal”¹⁵ tarzida ifodalab, amaldan (oromdan) uyg'otishga chog'lanadi, negaki, erk masalasi – hayot-mamot, yo hayot-yo najot masalasi edi:

Ulug' Turon, botar ersang, quyoshdek botmoq istaymen,
Totarsan zahri qotil gar, ani ham totmoq istaymen

¹³ Afoqova Nodira, “Jadid she'riyati poetikasi (vazn va qofiyalar muammolari)”. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. T.: 2005-yil, B-13

¹⁴ Abdulhamid Cho'lpon, Yana oldim sozimni, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1991-yil, B-408

¹⁵ Abdulhamid Cho'lpon, Yana oldim sozimni, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1991-yil, B-419

O'tar ersang, turobingman, yo'lingda yotmoq istaymen,
 "Ulug'im, uyg'on-ey, yotma" debon dod etmoq istaymen,
 Qo'limda so'nggi tosh qoldi-yovingga otmoq istaymen,
 Ko'zimda so'nggi yosh qoldi-amalga yetmoq istaymen.

"Galdir"¹⁶ she'ri ham bir qarashda cholg'u asbobi bilan bog'liq tuyg'ular haqidagi she'rga o'xshasa-da, zamirida bechora, ezilgan, mazlumlarga hamdardlik tuyg'ulari aks etgan ilhom namunasi. She'r 7 baytdan iborat, a-a, b-b, d-d, c-c, f-f, e-e, g-g tarzidagi qofiyalanish tizimiga ega, o'zbek xalq og'zaki ijodiyotiga xos "Galdir" ohanglariga monand nomlangan.

Afoqova mazkur she'rni ijodiy davom ettirib, Cho'lpon ifoda etgan fikrlarni mantiqan davom ettiradi, rivojlantiradi, shu yo'l bilan o'z tuyg'ularining ham ustoz nola-yu iztirob chekkan xalq dardiga hamdard ekanligini bildiradi.

Men dutor birlan tug'ishgan ko'hna bir devonaman,

Ul tug'ishgonim bilan bir o'tda doim yonaman,- she'rining lirik qahramon o'zini dutor singari eski qadrton, uning bilan chekmishlari bir ekani ifodalangan baytiga shoira uch misrani quyidagicha qo'shib, ustoz tuyg'ularini yorqinlantiradi:

Kim demang, azal-azaldan borman-u so'zonaman,

Eski bir afsonaman, Majnun bilan hamxonaman,

Tori mo'ydek o't ichinda chorasiz to'lg'onaman.

Tatabbu'larda ijodkor salaf qo'llagan badiiy tasvir vositalarni qo'llashi, fikrni tadrijiylikda rivojlantirishi lozimligi muxammasning "Men dutor birla tug'ishqon ko'hna bir devonaman" desa, shoira "Tori mo'ydek o't ichinda chorasiz to'lg'onaman", "Dillarida g'am to'la bechoralarga yorman" degan ustozga "Ey, agar ishqsiz esang, ket, sen bila ag'yorman" kabi o'rinlarida o'z ifodasini topgan. She'rning uchinchi bandida she'r shunchaki dutorga qiyoslanishdan ijtimoiy mavzuga kengayadi. Shoira "Men dutorning torlariga berkinib olsam agar" da ifodalangan dutorning ikkita torini mantiqiy rivojlantirish yo'li bilan yanada yorqinroq ifodalashga erishadi:

Ikki tormi ikki daryo-bag'rida girdob xatar,

Ikki daryo yurti pora, pora dildan pardalar,

Ikki daryo pardai dil birla andoq navhagar...

XX asr boshlarida Movarounnahr(ikki daryo oralig'i)da xalqimiz boshidan kechayotgan og'ir kunlar ana shunday dardli ohanglar bilan tasvirlanadi. Cho'lpon she'riyati mustabid tuzumga qarshi uning qo'lida ashadiiy quroli bo'lgan. Xalqning erki, ozodligi uchun kurash, kurashishga mudroq xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otish

¹⁶ Abdulhamid Cho'lpon, Yana oldim sozimni, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1991-yil, B-518

Cho'lponning hurlik bosh mavzu sifatida tasvirlangan she'rlarida bosh g'oya bo'lgan. Haqsizlik iskanjasi va qiynoqni shoir:

Pardalar uzra yurib turgan odam barmoqlari

Ko'kragimdan ko'p bosar, shundan bo'lur tolmoqlari, -misralarida qayd etadi.

Shoira esa shu ohang, shu hazinlikni saqlab:

Asli bu-ohang emasdir, xasta ko'ngil ohlari,

Mustabid borliqqa qarshi chorasiz titroqlari,

Toki xo'rlik, zo'rlik-u, haqsizlik ersa haqlari, - singari ifoda bilan Cho'lpon juda qaltis vaziyatlarda eng teran va baland ovoz bilan, ochiqdan-ochiq mustabid tuzumning asl ko'rinishini ko'rsatganini, ko'rsata olganini shoira bugungi mustaqillik kunlarida xalqimizga yana bir bora eslatib, bu kunlarning qadriga yetmoqlikni, ozodlik tuhfa emasligini eslatishni, balki yoddan chiqarmaslikni, qadriga yetishlikni uqtirishni maqsad qiladi. Cho'lponning "Sozim"¹⁷ she'ri "Ko'ngil", "Galdir", "Yetar, bas..." she'rlari kabi bir xil mavzuda yaratilgan, bir-birini to'ldirib, mantiqiy davom sifatida qabul qilinuvchi ijod namunlardan biridir. Ammo "Sozim" she'ri yuqorida keltirilgan she'rlarning o'z mavzu ko'lamiga ko'ra kulminatsiyasi, avji pardasi yoinki ularda tasvirlangan voqea-hodisa oqibatlariga aytilgan hukmdir. Cho'lponning "Sozim" she'ri har bandi besh misradan iborat, barmoq vaznida yaratilgan. She'r muxammasga xos a-a-a-a-b, d-d-d-b, e-e-e-e-b tarzidagi qofiyalanish tartibiga ega jami 15 misradan iborat. Cho'lpon o'z tarjimayi holida: "Madrasada o'qib yurgan kezlarimda bir turk bilan tanishdim. U Qur'onni boshdan-oyoq yod biladigan g'oyat savodxon kishi edi. Keyin bilsam, Istambuldagi panturkistlar uyushmasi tomonidan u Sharqiy Turkistonga umumturk g'oyalarini targ'ib qilish uchun yuborilgan ekan. Gazeta-jurnallarni mutolaa qilishni o'shandan o'rgandim. Madrasadagi saboqlar bir chekkada qolib ketdi. Bir yo'la adabiyotga yuz burdim", - deb yozadi jadidchilik yo'liga qanday kirganini hikoya qilgan ekan"¹⁸, -deya xotirlaydi. "Sozim" da shunday satrlar bor:

Nafrat o'lkasidan hijrat qilganman,

Ulfat diyoriga maskan qurganman,

Yuzimni o't emas, gulag burganman

Samoviy zavqlarga to'lib turganman

Bulbullar sevgini maqtagan damda!- misralar aynan shoirning tarjimayi holini ifodalaydi. Ammo o'sha kezlarda hali 27 yoshda bo'lgan shoir qalbini xalqning boshiga tushayotgan og'ir kunlar yaralaydi, millat qayg'usi deya ko'zdan oqqan yosh

¹⁷ Abdulhamid Cho'lpon, Yana oldim sozimni, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1991-yil, B-501

¹⁸ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/esong-ali-ravshanov-cho-lpon>. Esong`ali Ravshanov, qozoqchadan Mehmonqul Islomov tarjimasi. "Jahon adabiyoti" jurnali 2010-yil, 10-son

shunchalar ko'pki, ularga chechaklar o'sadi! Ammo u hali juda yosh. Qismat unga taqdim qilayotgan qadarga u ko'nika olmaydi, balki rozi bo'la olmaydi. U hayotga tashna. U butun borliqni muhabbat ko'zi bilan ko'radi.

Chechaklar o'sgusi ko'z yoshlarimdan,
Bo'g'inlar unguis o'ylashlarimdan,
Qalblar yumshagusi sayrashlarimdan,
Sevgi chamanida yayrashlarimdan
Jannatlar yaratgay tashlangan janda.

Xalqimizda: "Tilingni tiy" degan jumla juda ko'p ishlatiladi. Umuman olganda, qaltis gaplar gapirilganda shunday gapni qo'llaymiz. Ammo zulm kuchayganida imkonlar qirqilganida, kuchlar kesilganida, qo'llar musht bo'lib tugiladi-yu, istibdodga qarshi dildagi nafrat tilga ko'chadi. Jazo muqarrar. Negaki, hamma vaqt ham "til yugurigi boshga balo" bo'lgan. Ming yillarki, bobolar avlodlarni ogohlantiradilar: "Til arslon misoli yotar qafasda. Bexabar boshini u yer nafasda"¹⁹ Cho'lpon ham "bexabar"ning emas, aksincha, ziyrakning, ogohning tillari tilinganini, nafaqat tilinganini ezilishlar jondan o'tib, suyakka yetganidan "tilingan tillarga qon yugur"ajagini, qachondir bir xor bo'lganga g'urur jon kirgizib, uyg'otajagini, hatto tikan ham gul ochajagini aytib, hayqiradi: axir ular HAQ yo'lidalar. Haq yo'li yagona. Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusidir. Salafning ifodalamoqchi bo'lganini bu qadar yorqin tuyish uchun uning kabi qalb kerak, ulkan qalb!

Tilingan tillarga qon yugurgusi,
Bo'shalgan inlarga jonlar kirgusi,
Tikanli bog'chalar chechak ko'rgusi
Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi
Jandalar tanimga teggan kunlarda!..

Nodira Afoqova tinch va farovon hayot bo'lsa-da, erki o'zida bo'lmagan "ozod" mamlakatda yashadi. Ne baxtki, mustaqillik nashidasini ham totdi. Uning yashag'larini orzu qilib, shunga intilib, shuni targ'ib qilib necha-necha ajdodlar jon olib jon berganlarini shoira qalbdan his qildi. Qalbdan bobolar dardiga sherik bo'ldi. Ammo faqat dardgagina sherik bo'lish har bir "ogoh" inson uchun yetarli emas. U ajdodlarning umrlari nimaga sarf bo'lganini, bu shukuhli kunlar qanday "to'lov" evaziga kelganini ajdodlarga yetkazishni o'ziga ham qarz, ham farz deb bildi. Shoira ijodiyotida Cho'lponga ergashish ana shu nekbin tuyg'ular hosilasi desak, mubolag'a bo'lmas. Shoiraning qozoqlarda "O'zbekning Mag'joni(Mustafu Cho'qay Cho'lponni

¹⁹ Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig" dostoni, Toshkent.: "Yulduzcha" nashriyoti, 1990-yil, B- 12

shunday atagan)²⁰”, ishq bobida “Qalandar”, erkni kuylaganida o’zbek osmonining “Go’zal Cho’lpon”i kabi qator sifatlarga ega erk kuychisi she’riyatidan ta’sirlanmasligi, unga ergashmasligi, vorislik qilmasligi mumkinmi? Ana shu hayajonlarga “Tosh, tikonlar poyimizni tilgusi” satri bilan boshlanuvchi beshlik javobdir:

Tosh, tikonlar poyimizni tilgusi,
Gohi imkon, gohi kuch qirgulgusi,
Haq yo’li dor uzra chunki bo’lg’usi
Haq yo’lida kim fidodir bilgusi:
Haq yo’li, albatta, bir o’tilgusi.

Shoira Cho’lpon muxammasidagi beshinchi misra “Haq yo’li, albatta, bir o’tilgusi” dagi qofiyadosh so’z “o’tilgusi”ga ohangdosh so’zlardan qofiya hosil qilib, o’z muxammasi ipini tizadi: “tilgusi-qirqilgusi-bo’lg’usi-bilgusi-o’tilgusi”. Fikrimizcha, Cho’lpon qalamiga mansub beshlik o’zida barmoq vazni xususiyatlariga ko’proq yaqin tursa-da, aruz vazni sifatlarga ega. She’r ramali musaddasi mahzuf vazniga monand yozilgan. Adabiyotshunos olim Nodira Afoqova jadid she’riyati tadqiqotlari ustida ishlar ekan, professor U. Tuychiyevning “aruz o’zbek tiliga mos kelmaydi, degan fikrni rad etdi”²¹ singari xulosasini yoqlaydi va “aruzdagi azl, vasl, imola, istihlof kabi fonetik hodisalar juzvlar asosida emas, aynan talaffuz asosida yuzaga keladi va izohlanadi”,-deya qayd etadi. Darhaqiqat, Cho’lponning “Sozim” muxammasi ham ana shu sifatlarga ko’ra tahlil qilinganida, uning ramali musaddasi mahzuf vaznida yaratilgani aniqlanadi. Taxmisda ham shu vazn aynan saqlangan:

Tosh	ti	kan	lar	po	yi	miz	ni	til	gu	Si
-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-
Go	hi	im	kon	go	hi	kuch	qir	qil	gu	si
-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-
Haq	yo’	li	dor	uz	ra	chun	ki	bo’l	g’u	si
-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-
Haq	yo’	li	da	kim	fi	do	dir	bil	gu	si
-	v	-	-	-	v	-	-	-	v	-
Haq	Yo’	li	al	bat	ta	bir	o’	til	gu	si

Rukni: Foilotun, foilotun, foilun, vazni ramali musaddasi mahzufdir.

She’rda qo’llangan “tosh”, “tikan” so’zlari istioraviy sifatga ega bo’lib, xalq chekayotgan zulmni ifodalaydi. Yashashga imkon, kurashga kuch qolmaydi. Kurash

²⁰ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/esong-ali-ravshanov-cho-lpon>. Eson`gali Ravshanov,

“Cho’lpon”. Qozoqchadan Mehmonqul Islomqulov tarjimasi “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010 yil, 10-son.

²¹ Afoqova, Jadid she’riyati poetikasi (vazn va qofiya muammolari) O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti. Toshkent. B-12

esa qurbonsiz bo'lmisligi aniq, ammo kimki haq yo'lini tanlagan ekan, u bu yo'ldan bir marta o'tish aniq ekanligini ta'kidlaydi: Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi. Jumla, shunchalik puxta, shunchalik ta'sirchanki, uch minginchi yil o'quvchisi uchun u allaqachon, hikmatga aylanib ulgurdi. Taxmisning davomida bu hayqiriqqa Buyuk Turk xoqonligini tuzib, turk xalqlarining yer yuzida yashab, yuksalishidan xabar berguvchi "O'rxun toshlari"-da, moli-joni talosh, zulmdan tinkasi qurigan sabr ahli ham aks-sado beradi:

Uxlamas O'rxunda toshlar, aytadir,
Ori-yu moli taloshlar aytadir,
Kosai sabr-k'ohna loshlar aytadir,
Yetmagan, yetgan u doshlar aytadir:
Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi.

Maslagi ozodlik, istiqloлга erishish bo'lgan har bir haqni istovchi kishi bilmog'i kerak:

Xoh kurash gulxanlari ichinda yur,
Xohi jimlik chodirinda chetda tur,
Toki ko'ngil matlabingdir erk , g'urur
Toki ko'ngil baxt emas, haq istayur
Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi.

Baxt – nisbiy tushuncha. Orzu qilingan narsaga erishish ko'pchilik uchun baxt sanalishi mumkin. Ammo HAQ haqida bunday deb bo'lmaydi. Haq-baxt tuyg'usidan yuksak, muqaddas tushunchadir! Haqqa erishish uchun soddaligidan foydalanib, manfaat uchun har bag'riga bosgan odamni do'st tutish, o'zni gayir itning ixtiyoriga berishdek xatarli. Dushmanga o'z quroli, o'z usuli bilan qarshi turmoq-kurashda eng to'g'ri usul. Ijodkor bu o'rinda istiora qo'llab xalqning sabr kosasi timsolini – "ityaloq" so'zi bilan ifodalaydi. Birgini shu so'z zamirida juda og'ir dard yotganini sezish qiyin emas, itdagi vafo-yu sadoqat xalqimizda bor, ammo uning turish turmushi og'ir, adolatsizlik, g'am, tazyiq, bosimlarga ham sabr qilayotgan holat shoira qalamida "ityaloq" istiorasi bilan achchiq alamda ifodalangan:

O'zbekim, jonso'z begim, yodingda tut:
Bag'rima bossam degan har itmi, bit
Sabr kosang etdi qo'rqmay ityaloq,
"Ityalok"ni unga qarshi et yaroq,
Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi.

She'ning so'nggi bandining 4 misrasida ham shoira "dil" so'zini nido badiiy tasvir vositasi sifatida tanlaydi. Bir qarashda bu so'z lirik qahramonni ifodalayotgan bo'lsa-da, uning zamirida millat nazarda tutilayotganini, ya'ni ijodkor bir so'z

vositasida lirik qahramondan tashqari xalqni ham ifodalab, iyhom san'at turini o'ta nazokat bilan qo'llaganini ko'rish mumkin. Badda xalqona ifoda kuchli. Milliy mintalitetimizda yaqin qarindoshimizni yoki qalin do'stimizni "jigarim" deb ataymiz. Ana shu xalqonalik she'rda g'aflat uyqusida bo'lganlarni uyg'otishga qaratilgan, biroq ko'nglini og'ritmasdan unga "dil" deya murojaat qilib, "haq yo'li"ga boshlagan:

Ko'p ulug' yo'l yo'lchisisan, yotma, dil,

Chiq quyoshdek, al-abad lek botma, dil,

G'aflat-og'u totli, andin totma, dil,

Bas, kuchingni daydi yelga sotma, dil,

Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi.

Cho'lponga nisbatan adabiyotshunoslar tomonidan qo'llanuvchi "Erk kuychisi" paradigmasi ham shunday yoniq she'rlar yoza olgan qalam sohibiga berilgani behuda emas.

XULOSA

Lirik janrlar va badiiy san'atlar bir-birini taqozo qiluvchi adabiy istilohlar bo'lib, she'rni badiiy tasvir vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Garchi vazn, janr badiiy asarning saviyasini belgilamasa-da, ular muayyan darajada lirik yaratmalarning estetik qimmatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa she'rning o'zi janrni tanlaydi, degan qarashning to'g'riligini tasdiqlaydi.

XIX asrning so'nggi choragida mumtoz adabiyotdagi an'anaviy obrazlar davr talabiga javob bera olmay qoldi, natijada she'riyatda ijtimoiylashuv boshlandi. Har qanday badiiy asarda davr ruhi, odamlarning orzu, armonlari, muammolari aks etadi. Ayni jarayon XX asrning 20-30-yillarida, 60-70-yillarida va milliy mustaqilik she'riyatida yangilanganligi kuzatiladi. Agar XX asr boshlarida aruzdan barmoq vazniga o'tish kuchaygan bo'lsa, mustaqillik yillarida barmoqdan aruz vazniga o'tish jarayoni kuchaya boshladi. Lirik qahramonning o'zgarib turishi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, adabiy muhit, maishiy hayot, ijodkor shaxs fenomeni bilan bog'liqligidan dalolat beradi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida mumtoz lirik janrlar transformatsiyasi milliy mustaqillikdan keyin jahon adabiyotning eng sara namunalari bilan tanishish imkonining paydo bo'lishi va ularning o'zbek tiliga tarjima qilinishi, dunyo she'riyatidagi adabiy tajribalarning o'rganilishi bilan bog'liq. Shuningdek, aruzga xos band tuzilishining barmoq, sarbast, modernga ko'chib o'tishini axborot oqimining kuchayishi, yangi innovatsion g'oyalarning joriy qilinishi, davrning shiddat bilan rivojlanib borishi natijasi sifatida ko'rsatish mumkin.

Har qanday badiiy asarning aslligini ko'rsatuvchi mezon uning til va uslubidir. Badiiy asar tili va uslubida muallif "men"i aks etadi. N. Afoqova bitiklarida turkiy tilga xos leksemalar miqdori yuqori. N. Afoqova ijodida tafsilot, ruhiy kechinma,

inson botinida kechayotgan ruhiy evrilishlar yetakchilik qiladi. Barqaror an'analarga ega milliy she'riyat avval mazmuniy, keyin shkliy o'zgarishga uchragan. XX asr boshlaridagi jadid adabiyoti va asr so'ngidagi milliy istiqlol davri she'riyatidagi yangilanish ayni bir xil vaziyatga to'g'ri keladi. Har ikkala hodisa o'tish davrida, tuzumning almashinuv vaqtiga amalga oshganligi jarayoning konkret tarixiy asosga ega ekanligini ko'rsatadi.

Nodira Afoqova ijodida an'ana va ijodiylik o'ziga xosligi bilan alohida hodisa, deyish mumkin. Shoiraning masnaviylari, g'azallarida shakliy qoliplarga og'ishmay amal qilingan, biroq ularda ifodalangan mavzu, g'oya, badiiy poetik fikr o'zining haddi a'losiga ko'tarilgan. Shoraning Cho'lpon g'azallariga bog'langan muxammaslari an'ana va ijodiylikning eng sara namunasi darajasiga etgan. U o'tmish shoirlari asarlaridan foydalangan holda davrning eng muhim muammolarini, g'oyalarni ifoda etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Prezident o'qituvchi va ziyolilarga murojaat qilmoqda" ma'ruzasi. 30.09.2020
2. Fayzulloyev B.B. O'zbek she'riyatida tatabbu' tarixi va mahorat masalalari. T. 2002.3-5-bet
3. Бағир А. Соҳир шеърият// Ўзбекистон адабиёти ва санъати", 2004 йил 28-апрель;
4. Саримсоқов Б. Ижод бахти, яратиш бахти // Афоқова Н. Кўнгил шеvasи. – Т.: "Фан", 2006. – 3-6-б.;
5. Саримсоқов Б. Кўшқанот ижод бахти // Афоқова Н. Аросат фасли. – Бухоро, 2003. – 3-5-б.
6. Afoqova Nodira. Qora navo. Toshkent: "Akademnashr", 2011-yil. B-74-,78.
7. <https://t.me/Nodirasheriyati>.
8. Afoqova Nodira. Jadid she'riyati poetikasi(vazn va qofiya muammolari) . Toshkent.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi , "Fan" nashriyoti, 2005-yil, B-12
9. <https://tafakkur.net/ko'ngil/abdulhamid-cholpon.uz>
10. N.Afoqova "Ko'ngil shevasi", O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2006-yil , B-74
11. Abdulhamid Cho'lpon, Yana oldim sozimni, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1991-yil, B-408
12. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/esong-ali-ravshanov-cho-lpon>. Esong'ali Ravshanov, qozoqchadan Mehmonqul Islomov tarjimasini. "Jahon adabiyoti" jurnali 2010-yil, 10-son

13. Yusuf Xos Hojib, “Qutadg’u bilig” dostoni, Toshkent.: “Yulduzcha” nashriyoti, 1990-yil, B- 12
14. Qozoqboy Yo’ldoshev, Muhayyo Yo’ldosheva. Badiiy tahlil asoslari, T.: 2016-yil